

UDC: 342.(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-5699-2825

MAHKUMLARNING JAZO O'TASHNI DAVOM ETTIRISHI UCHUN FUQAROLIGI BO'LGAN DAVLATGA TOPSHIRISHDAGI HUQUQIY MAQOMI

Saidov Olim Chorikulovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: olimsaidov1976@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahkumlarni topshirish mexanizmi bo'yicha xalqaro hamkorlikning huquqiy asosi hisoblangan xalqaro shartnomalar hamda mahkumning topshirish jarayonida uning huquqlari bilan bog'liq bo'lgan xalqaro hujjatlar o'rganilgan va tahlil qilingan. Mahkumlarni huquqiy maqomini aniqlashda, ularning huquqlariga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, topshirilayotgan mahkumlarning huquqiy maqomi uning ajralmas qismi sifatida jazoni o'tayotgan shaxslarning huquqiy maqomi doirasida ko'rib chiqilishi kerakligiga e'tibor berilgan. Muallif mahkumlarning topshirish jarayonidagi huquqiy holati milliy qonunchilikda alohida belgilanmaganligini, ikki yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarda ularga ta'rif berilganligini hamda huquq va majburiyatlari o'z aksini topganligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, mahkumning huquqiy maqomining tahlili natijasida asosiy urg'uni aynan mahkum xorijiy davlatda jazo o'tayotganligi va topshirilishi jarayonidagi huquq va majburiyatlarni hisobga olishi zarurligini xulosa qiladi hamda mahkumni topshirish to'g'risida ish qo'zg'atish bosqichida, ham jinoyat-protsessual, ham jinoyat ijroiya qonunchiligiga hamda xalqaro standartlarga murojaat qilish zarurati yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Muallif tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik yo'nalishlarining bir-biriga bog'liq jihatlari keng yoritilgan bo'lib, milliy qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar kiritish masalasida o'z fikr va mulohazalarini keltirgan.

Kalit so'zlar: mahkum, xalqaro hamkorlik, xalqaro shartnoma, topshirish, huquqiy maqom.

ПРАВОВОЙ СТАТУС ОСУЖДЕННЫХ ПРИ ПЕРЕДАЧЕ ИХ ДЛЯ ОТБЫВАНИЯ НАКАЗАНИЯ В ГОСУДАРСТВА ГРАЖДАНСТВА

Саидов Олим Чорикулович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье исследуются и анализируются международные соглашения, являющиеся правовой основой международного сотрудничества по механизму передачи осужденных, а также международные документы, касающиеся прав осужденных в процессе передачи. При определении правового статуса осужденных особое внимание уделялось их правам, и было отмечено, что правовой статус передаваемых осужденных следует рассматривать как неотъемлемую часть правового статуса осужденных. Автор подчеркивает, что правовое положение осужденных в процессе их перевода не закреплено в национальном законодательстве, но определены права и обязанности осужденных в двух- и многосторонних международных договорах. Кроме того, в результате анализа правового статуса осужденного делается вывод о том, что основной акцент должен делаться именно на том, что осужденный отбывает наказание в иностранном государстве, и необходимо учитывать права и обязанности в процессе их передачи, также подчеркивается, что на стадии возбуждения дела о передаче осужденного возникает необходимость обращения как к уголовно-процессуальному, так и к уголовно-исполнительному законодательству и международным стандартам. Автор подробно раскрывает взаимосвязь между направлениями международного сотрудничества по уголовным делам и выдвигает предложения по внесению изменений и дополнений в национальное законодательство.

Ключевые слова: осужденные, международное сотрудничество, международные договора, передача, правовой статус.

THE LEGAL STATUS OF PRISONERS WHEN BEING TRANSFERRED TO SERVE THEIR SENTENCE IN THE STATE OF THE NATIONALITY

Saidov Olim Chorikulovich,
Researcher of
Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines and analyzes international agreements that are the legal basis for international cooperation on the mechanism of transferring prisoners, as well as international documents concerning the rights of prisoners in the process of transferring. When determining the legal status of prisoners, special attention was paid to their rights, and it was noted that the legal status of transferred prisoners should be considered as an integral part of the legal status of prisoners. The author emphasizes that the legal status of convicts in the process of their transfer is not fixed in national legislation, but the rights and obligations of convicts are defined in two- or multilateral international treaties. In addition, as a result of the analysis of the legal status of the convicted person, it is concluded that the main emphasis should be placed on the fact that the convicted person is serving a sentence in a foreign country and takes into account the rights and obligations in the process of transfer, and also emphasizes that at the stage of initiating a case for the transfer of a convicted person, there is a need to appeal to both criminal procedural and penal enforcement legislation and international standards. The author extensively reveals the relationship between the directions of international cooperation in criminal matters and puts forward proposals for amendments and additions to the national legislation.

Keywords: prisoners, international cooperation, international treaties, transfer, legal status.

Kirish

Dunyoda jinoiy odil sudlov sohasida davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish masalasi tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va odil sudlov bo'yicha 14-Kongressida jinoiy odil sudlov tizimi oldida turgan muam-molarni hal etishga kompleks yondashish lozimligi qayd etilgan. Xalqaro huquq normalariga asoslangan holda, inson huquqlarini ta'minlash hamda mahkumlarning fuqaroligi bo'lgan davlatida jazo o'tash imkoniyatini berishda huquq ustuvorligini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aytish joizki, bugungi kunda dunyoning 11 millionga yaqin aholisi mahkum sifatida qayd etilgan bo'lib, ularni 5 %i xorijiy mahkumlardir. Shu munosabatdan xalqaro hamkorlikning yangi yo'nalishi sifatida qaralayotgan, jazo o'tashni davom ettirish uchun fuqaroligi bo'lgan davlatga mahkumlarni topshirish masalalarini tahlil qilish, huquqiy tartibga solish va aniq mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelganligidan dalolat beradi.

Jahonda mahkumni jazo o'tashni davom ettirish uchun fuqaroligi bo'lgan davlatga topshirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida mazkur tizimni takomillashtirish, har bir hukmni ijro

etilishini ta'minlash, mahkumlarning huquqlarini ta'minlashda xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiyasini kuchaytirish, mahkumlarni topshirishning yanada samaraliroq mexanizmini ishlab chiqish, mahkumlarni jamiyatda normal turmushga qaytarish, ijtimoiy reabilitatsiya qilish kabi maqsadlarda normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Material va metodlar

Ushbu maqola yuzasidan ilmiy izlanishlar natijasida muallif tomonidan bir nechta huquqiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

1. Qiyosiy-tahlil metodi. Ushbu metoddan maqolada tahlil qilingan xalqaro hujjatlar, ya'ni ikki tomonlama shartnomalarning mazmunini qiyoslash orqali umumiy hamda o'ziga xos jihatlarini taqqoslash jarayonida foydalanildi. Shuningdek, xorijiy huquqshunos olimlarning fikrlari tahlil etilib o'zaro taqqoslanildi.

2. Ilmiy izlanish jarayonida MDH davlatlari o'rtasida tuzilgan 1998-yilgi "Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxslarni jazoni o'tashni davom ettirish maqsadida topshirish to'g'risida"gi konvensiya, 1983-yilgi "Mahkumlarni topshirish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi normalarini

sharhlash va ular mazmunini ochib berishda formal-logistik metoddan fodalanildi.

3. Bugungi kunda sohadagi mavjud huquqiy holatning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va asoslash jarayonida muallif tomonidan empirik metod hisoblangan tarixiy-huquqiy metoddan foydalanildi. Bundan tashqari, maqolada mavzu yuzasidan muallifning nazariy jihatdan fikr-mulohazalari ham bayon etilgan. Bunda muallif tomonidan doktrinal huquqiy tadqiqot metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Mahkumlarni topshirish masalasi dunyoda ko'pchilik olimlarni diqqat e'tiborini o'ziga jalb qilgan, turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan yangi shakllanayotgan huquq institutlaridan biridir. Asosiy bahsli tomoni shundaki, tahlil qilinayotgan institut jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik sohasining alohida yo'nalishimi? O'zaro huquqiy yordam yoki ekstraditsiya institutining tarkibiy qismimi? degan savollarga aniq va yakdil javoblar yo'qligidir. Bu masala bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmagan bo'lib, bugungi kunda olimlarimiz tomonidan yagona bir ta'rif yoki fikr mavjud emas.

D.Sh. Umarxanova o'zining ilmiy ishlarida "jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini protsessual harakatlarning bajarilishiga ko'ra: ekstraditsiya, o'zaro huquqiy yordam, ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni hamda ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni majburiy tibbiy davolanishi uchun fuqaroligi bo'lgan davlatga topshirish va qabul qilish kabi yo'nalishlarga ajratgan hamda ularni bir-biridan farqli jihatlarini tahlil qilgan. U o'z fikrini har bir institut alohida protsessual harakatlar talab qilgani, alohida huquq normalari bilan tartibga solingani, subyektlar o'rtasida vakolatlar doirasi ham alohida belgilangani hamda amalga oshirish vositalari ham turli xil bo'lgani uchun jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini tashkil etuvchi asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rish lozim" [1, 21-22-b.] deb ta'kidlaydi.

Hozirda jinoiy odil sudlov bo'yicha xalqaro hamkorlikning har bir yo'nalishi takomillashib bormoqda. Rossiyalik olim A.G. Volevodz, haqli ravishda, har birining sohalararo kompleks xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, yo'nalishlar quyidagi mezonlar asosida bir-biridan farqli bo'lgan alohida institutlar ekanligini

ham belgilab beradi: 1) huquqiy bazaning shakllanganligi; 2) mazmuni, maqsadi va prinsiplarining mavjudligi; 3) alohida huquqiy tabiatiga ega ekanligi; 4) huquqni qo'llash amaliyotining takomillashganligi [2, 102-b].

Jinoiy odil sudlov bo'yicha xalqaro hamkorlik sohasini tashkil etuvchi institutlar ayni paytda xalqaro jinoyat huquqi sohasining institutlari hisoblanadi [3, 499–528-b]. Chunki mazkur institutlar muayyan mustaqil xarakterga ega bo'lgan masalalarni tartibga soladi.

Maykl Plachta "jinoiy odil sudlov bo'yicha xalqaro hamkorlik o'z ichiga ekstraditsiya, jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam, jinoiy ta'qib yoki jazoni o'tash uchun aybdorni u fuqarosi bo'lgan davlatga topshirish, xorijiy davlat sudining hukmini tan olish, qidiruv kabi yo'nalishlarini qamrab oladi" [4, 87-b], deb ta'kidlagan.

Shu nuqtayi nazardan mahkumlarni topshirish jarayonining uning huquqiy maqomini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Bu esa mazkur jarayonni amalga oshirishda ishtirokchi sifatida uning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab olishimizga yordam beradi.

Mahkumlarni topshirish jarayonini yuzaga keltiruvchi eng asosiy ishtirokchi bu, ozodlikdan mahrum qilingan hamda jazo o'tashni davom ettirish uchun fuqarosi bo'lgan davlatga o'tkazilishini so'rab ariza bilan murojaat qilgan mahkumni o'zi hisoblanadi.

Shuni yodda tutish kerakki, mahkumning iltimosnomasida uning jazoni davom ettirish uchun fuqaroligi bo'lgan davlatida o'tashi zarurligi asoslanishi kerak (ijtimoiy foydali aloqalarni saqlab qolish yoki tiklash maqsadida, o'z ona tilidan foydalanish, tanish ijtimoiy-madaniy muhitda jazoni o'tash, o'z davlatida yashash joyiga ega bo'lish va boshqalar).

Mahkumlarning topshirish jarayonidagi huquqiy holati milliy qonunchilikda alohida belgilanmagan bo'lsa-da, ikki yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarida ularga ta'rif berilgan hamda huquq va majburiyatlari o'z aksini topgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida 2009-yilning 25-fevralida imzolangan "Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni jazo o'tashni davom ettirish uchun topshirish to'g'risida"gi shartnomaga asosan "mahkum" – jinoyat sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish tarzida Ahdlashuvchi

Tomonlardan birining sudi hukm etgan shaxs (1-modda, 1-bandi, v qismi) ekanligi belgilangan bo'lib, "hukmni ijro etish davlati" – ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs jazo o'tashni davom ettirish uchun topshiriladigan Ahdlashuvchi Tomon (1-modda, 1-bandi, b qismi) deb ta'rif berilgan. Mazkur qoidalar mazmunan davlatlar o'rtasidagi jinoyat ish yurituvchi bo'yicha xalqaro hamkorlik sohasining topshirish instituti sifatida tartibga solinganligini anglatadi.

Bundan tashqari, mahkumlarning huquqiy maqomi, BMT "Chet ellik mahkumlarni topshirish to'g'risida"gi namunaviy shartnomasida ko'rsatilgan Mahkumlarning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash prinsipi asosida mustahkamlangan deyish mumkin. Prinsipga ko'ra, topshirish jarayonida mahkumlarga nisbatan shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga yo'l qo'yilmaslik kafolatlanadi hamda unga fuqaroligi yoki doimiy yashash joyi bo'lgan davlatga topshirish imkoniyati va uning huquqiy oqibatlari haqida to'liq ma'lumot beriladi [5].

Tadqiqot natijalari tahlili

Mahkumlarni huquqiy maqomini aniqlash uchun, ularning huquqlariga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Faqat topshirilayotgan mahkumning huquqiy maqomi uning ajralmas qismi sifatida jazoni o'tayotgan shaxslarning huquqiy maqomi doirasida ko'rib chiqilishi kerakligiga e'tibor berishimiz zarur.

Birinchidan, tadqiqotchilar haqli ravishda, *hukm e'lon qilingan vaqtning o'zida, mahkumni o'z davlatida jazo o'tashni davom ettirish uchun ariza berish huquqiga ega* ekanligi sud tomonidan tushuntirilishi kerakligini ta'kidlaydilar [6, 377-b., 7, 168-b.]. Biz esa ushbu huquq va huquqiy oqibatlarni jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ vakillari tomonidan ham tushuntirilishi zarurligini qo'shimcha qilamiz. Zero, "Mahkumlar bilan muomalada bo'lishning minimal standart qoidalari"da mazkur qoida umumiy shaklda o'z aksini topgan. Unga ko'ra, mahkum jazoni ijro etish muassasasiga qabul qilingandan so'ng, har bir mahbusga, ushbu muassasaning intizomiy qoidalari, shuningdek ma'lumot olish va shikoyat qilishning ruxsat etilgan usullari hamda huquq va majburiyatlaridan xabardor bo'lishi va ushbu muassasadagi hayot sharoitlariga moslashishga imkon beruvchi boshqa barcha masalalar haqida

yozma ma'lumot berilishi (savodsiz mahbuslarni esa og'zaki xabardor qilish) kerakligi ko'rsatilgan [8]. Bu kabi qoidalar, xorijiy davlatlar, asosan MDH davlatlari qonunchiligida ham mustahkamlangan.

Yevropa mamlakatlari tajribasiga nazar tashlar ekanmiz, mahkumlarni topshirish masalalarini tartibga soluvchi universal hujjat sifatida 1983-yilgi Yevropa Kengashining "Mahkumlarni topshirish to'g'risida"gi konvensiya ekanligini guvohi bo'lamiz. Mazkur konvensiyada ham umumiy shaklda mahkumga davlat tomonidan konsultatsiya berishi kerakligi to'g'risida qoida kiritilgan bo'lib, asosan mahkumning o'z davlatida jazo o'tashni davom ettirishi mumkinligini tushuntirish kerakligi belgilangan. Bu esa mahkumning roziligisiz o'z davlatiga topshirilishi mumkin emasligini nazarda tutadi [9, 118-b.].

Bundan tashqari, Germaniya Federativ Respublikasi amaliyotini o'rganish ham foydadan holi emas. Chunki sud jarayonida mahalliy sudya mahkumga bir nechta aniqlashtiruvchi savollar berish orqali, uning bir qancha harakatlar uchun huquqlari borligini aytib o'tadi. Xususan, unga har qanday holatda ham himoyalalanish tartibidan foydalanishi mumkinligi va u aybsiz qilmish yuzasidan o'z fikrini bildirishi yoki bu haqda hech narsa demasligiga ruxsat berilishini ma'lum qiladi. Eng asosiysi, sudya mahkumdan jazo o'tashni davom ettirish uchun davlatiga topshirilishiga rozi yoki rozi emasligini va qanday sabablarga ko'ra topshirilishi mumkinligini aniqlashtirib oladi. Mahkumga topshirilishi uchun roziligining huquqiy oqibatlari va uning bekor bo'lmasligi haqida ma'lumot beriladi. Bularning barchasi sudyaning bayonnomasida qayd etiladi [10].

Mamlakatimiz qonunchiligida mahkumlarning huquqlari qatorida ma'lumot olish huquqi tegishli moddalarda belgilangan. Mazkur ma'lumotlar asosan, jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida, o'z huquqlari va majburiyatlari haqida bo'lib, hukm e'lon qilingan vaqtning o'zida yoki jazo o'tash davrida, mahkumni o'z davlatida jazo o'tashni davom ettirish uchun ariza berish huquqiga ega ekanligi to'g'risidagi ma'lumotni olishini nazarda tutmagan [11].

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining mahkumlarning asosiy huquqlari aks ettirilgan 9-moddasiga, xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan (xorijda doimiy yashovchi fuqaroligi yo'q shaxs) mahkumning o'z

davlatida jazoni o'tash huquqiga ega ekanligi va bu sud yoki jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ vakillari tomonidan ham tushuntirilishi zarurligi to'g'risidagi qoidani kiritish taklif etiladi. Mazkur jarayon davlatlar tomonidan imzolangan ikki tomonlama shartnomalarda alohida kelishilmagan bo'lsa, milliy qonunchilik normalari bilan tartibga solinishi ham nazarda tutish zarur hisoblanadi.

Buning mantiqiy davomi sifatida, Kodeksning boshqa moddalarini uyg'unlashtirish maqsadida, 54-moddaga quyidagi mazmundagi normani kiritish zarur hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi jazoni o'tash muassasalarida ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan chet el fuqarolari jazoni o'tash uchun xalqaro shartnomalarda yoki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori xorijiy davlatning vakolatli organlari va mansabdor shaxslari bilan o'zarolik prinsipi asosida yozma kelishuvlar orqali fuqaroligi bo'lgan davlatlarga yoki doimiy yashash joyiga (agar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lsa) jazoni o'tash uchun yuborilishi mumkin.

Mazkur norma mahkumlarni jazoni o'tash uchun jo'natish tartibida o'z aksini topishi, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni nafaqat tergov hibsxonasining ma'muriyati jazoni o'tash uchun jo'natilishi nazarda tutadi, balki mahkumlarni jazo o'tash uchun davlatiga yuborilishi mumkinligini ham o'z ichiga olishi kerak. Taklif etilayotgan qoidaga e'tibor beradigan bo'lsak, unda mahkumlarni topshirish mexanizmi qisqa shaklda ko'rsatib berilgan bo'lib, asosiy e'tibor mahkumning 9-moddada aks etgan huquqi borligini tasdiqlaydi.

Mazkur mexanizm ko'pgina xorijiy va MDH mamlakatlari qonunchiligida mavjud. Xususan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 88-moddasida shunday tartib nazarda tutilgan.

Bu kabi qoidalarining faqatgina xalqaro shartnomalarda aks etishi yetarli emas, deb hisoblaymiz. Chunki davlatlar har doim ham o'zaro kelishilgan shartnomalarga ega bo'lmaydi. Bunday holatlarda o'zarolik prinsipi asosida hamkorlikni amalga oshiradilar. Bizga ma'lumki, o'zarolik prinsipiga ko'ra, talab etiladigan hujjatlar, shartlar va asoslar milliy qonunchilikka ko'ra amalga oshiriladi [12]. Shunday ekan, milliy

qonunchilikda xalqaro shartnomalar va milliy normalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik hamda O'zbekiston Respublikasi o'zaro shartnoma imzolamagan davlati bilan mahkumlarni topshirishga oid munosabatlarni tartibga solinishi masalasiga ham oydinlik kiritishi zarur bo'ladi. Bu esa bir paytda "Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxslarni jazo o'tashni davom ettirish maqsadida topshirish to'g'risida"gi konvensiya normalariga (2-modda) moslashtirilishiga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, JIKning 4-moddasida belgilangan xalqaro huquq normalarining ustunligi hamda inson huquqlarini ta'minlanishi nuqtayi nazaridan rioya etilishiga olib keladi.

Ikkinchidan, sud majlisiga tayyorgarlik bosqichida, protsessual va boshqa hujjatlarni mahkum tushunadigan sudlov ishi tilida olib borish uchun rasmiy tarjimaga ehtiyoj seziladi. Ahloq tuzatish muassasasi ma'muriyati malakali tarjimonni taqdim etolmasligi, mahkumni topshirish jarayonida qo'shimcha qiyinchilikni yuzaga keltiradi va uni tegishli protsessual kafolatlardan mahrum qiladi.

Odatda, chet el fuqarolari bo'lgan mahkumlar til va diniy qiyinchiliklarga duch keladi. *Til muammosi* – chet ellik mahkumlar duch keladigan eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi [13, 71-b]. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning atigi 3.3 %i boshqa davlatga topshirishda asosiy mezonlardan biri sifatida til to'sig'ini hisobga olish kerak deb hisoblaydilar.

Davlatlarning jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligiga hamda BMT Namunaviy shartnomalari qoidalariga muvofiq, jinoiy sud ishlarini olib borish tilini bilmaydigan chet el fuqarosi bo'lgan mahkum, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek takliflar, bayonotlar va shikoyatlar bilan murojaat qilmoqchi bo'lganlarga axloq tuzatish muassasasi ma'muriyati tomonidan malakali tarjimon orqali ushbu imkoniyatni taqdim etishni ta'minlanishi shart hisoblanadi [4].

Mamlakatimiz qonunchiligida ham ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs murojaat etgan tilga tarjima qilib berish jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ tomonidan ta'minlanishi nazarda tutilgan [11]. MDH davlatlari qonunchiligida ham bu kabi qoidalar o'rnatilgan (Ukraina JIK 8-moddasi, RF JIK 12-moddasi, Qozog'iston JIK 10-moddasi). Lekin mazkur

holatni aksini Germaniya davlatida ko'rishimiz mumkin. GFR qonunchiligiga ko'ra, agar tarjimon sud ish yurituvda va jazoni o'tash muassasida nemis tilida gaplashmaydigan mahkum uchun ish olib borgan bo'lsa, u holda bu bilan bog'liq xarajatlar mahkum tomonidan qoplanadi degan qoida kiritilgan (Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining 464-moddasi) [14].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, nemis qonunchligida jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish va topshirish masalalarini tartibga solishda maxsus terminologiyadan foydalanadi. Jumladan, soddallashtirilgan ekstraditsiya, xorijga vaqtincha topshirish, mahkumni topshirish, yetkazib berish, tranzit tashish kabilardir [15]. Bu atamalarining barchasi mazmun jihatidan bir masalani nazarda tutadi, lekin turli ma'nolarga ega bo'lgani uchun, malakali tarjimon xizmatidan foydalanishni taqozo etadi.

Yuqoridatahlillarnatijasida quyidagicha xulosa qilish mumkin. Mahkumning (uning qonuniy vakili yoki advokati) xorijiy davlatning vakolatli organlariga topshirish to'g'risidagi iltimosnomasi yoki murojaatnomasi va boshqa zarur hujjatlar uning fuqaroligi yoki doimiy yashash joyi bo'lgan davlat tiliga tarjima qilinishi kerak. Xorijiy davlatning vakolatli organlaridan topshirish imkoniyati to'g'risidagi so'rovni qondirish yoki rad etish to'g'risida olingan javob ham mahkum biladigan tilga tarjima qilinishi kerak. Bularning barchasi, albatta, chet el davlati sudining hukmini ijro etish bilan bog'liq masalalarni sud tomonidan hal qilish bosqichida topshirilgan mahkumlarning protsessual huquqlaridir.

Shu munosabat bilan, ko'rib chiqilayotgan institutning turli bosqichlarida topshirilishi lozim bo'lgan mahkumning huquq va majburiyatlarini qonunchilikda aniq ko'rsatish lozim. Mahkum sudga taqdim etilgan materiallar bilan turli bosqichlarda (faqat sud majlisida emas), shu jumladan ularni tarjima qilish yoki tarjimon xizmatidan foydalanish orqali tanishish huquqiga ega bo'lishi kerak. Chunki turli mamlakatlarda chet ellik mahkumlarni yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun nafaqat sud jarayonida, balki jiddiy savollar tug'ilishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday vaqtda ham tarjimon xizmatidan foydalanishni ta'minlash yo'lga qo'yilgan. Bunday paytlarda, mahkumni yolg'izlik tuyg'usini yengish uchun o'z xohishi bilan yordam beradigan yaqin

atrofda yashovchi boshqa fuqarolarning tashrifi ham katta foyda keltirishi mumkin [16, 9-b].

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida mahkumlarni fuqaroligiga tegishli bo'lgan davlatga jazo o'tashni davom ettirish uchun topshirish jarayonida boshqa joyga ko'chirishda yaqin qarindoshlarini xabardor etish yoki xalqaro shartnoma asosida ozodlikdan mahrum qilingan shaxs jazoni o'tab bo'lgan yoki unga nisbatan amalga oshirilgan har qanday harakat yuzasidan xorijiy davlatni *xabardor qilish* masalalari o'z aksini topmagan.

Bizga ma'lumki, milliy qonunchilikka ko'ra mahkumlar jazoni o'tash uchun jo'natilganligi va yetib kelganligi to'g'risida oilasiga xabar yuborilishi shart. Jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati mahkum yetib kelgan kundan boshlab uch kunlik muddat ichida bu haqda hukm chiqargan sudni xabardor qilishi, shuningdek mahkumning oilasiga muassasa manzilini ko'rsatib hamda mahkumning yozishma olib borish, uchrashuv, posilka, yo'qlov va banderollar olish, telefon orqali so'zlashuv huquqlarini tushuntirib, xabarnoma yuborishi shart (JIK, 55-modda). Lekin bu norma faqatgina sud tomonidan hukm chiqarilganidan so'ng, sudlangan shaxs mahkum maqomini olganidan keyingi jarayonni nazarda tutadi. Xorijiy davlat huddudida jazo o'tayotgan shaxslar fuqarosi bo'lgan davlatga topshirilishida oilasiga xabar berilishi masalasi chetda qolib ketgan.

Shunga qaramasdan, bu qoida xalqaro shartnomalarda va davlatlar amaliyotida ham mustahkamlangan bo'lib, mahkumlarning asosiy huquqlari sifatida belgilangan.

Masalan, O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari bilan tuzilgan "Mahkumlarni topshirish to'g'risida"gi [17] ikki tomonlama shartnomasida, chiqarilgan hukmni ijro etuvchi davlat uni ijro etilishi to'g'risida hukm chiqargan davlatni xabardor qilishi kerakligini ko'rsatilgan. Unga ko'ra, hukm muddatining tugashi, mahkumning hukm muddati tugashidan avval qochib ketishi, hukm chiqargan davlatining so'roviga muvofiq, hukmning qolgan qismini hisobga olgan holda uning ijro etilishi haqida xabardor qilishi nazarda tutilgan (14 modda).

Xuddi shunga o'xshash qoida, MDH davlatlari o'rtasida tuzilgan 1998-yilgi "Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxslarni

jazoni o'tashni davom ettirish maqsadida topshirish to'g'risida"gi konvensiyasida [18] hamda Mahkumlar bilan muomalada bo'lishning minimal standart qoidalari"da [8, 44-b] hamda 1983-yilgi "Mahkumlarni topshirish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi 14-, 15-moddalarida [20] belgilangan.

Xulosalar

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, mahkumlarni topshirish jarayonida mahkumning yaqin qarindoshlariga, qonuniy vakili va topshiruvchi davlatga uning holati to'g'risida xabardor qilish masalasi asosan, ruhiy holati buzilgan mahkumlarga nisbatan ko'proq qo'llanishini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi JPK va JIK ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni jazo o'tashi uchun topshirish hamda ruhiy kasallikka chalingan, shuningdek ruhiy kasalliklar bilan kasallangan shaxslarni fuqaroligiga tegishli bo'lgan davlatda tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash uchun topshirish masalasi qonun darajasida tartibga solinmagan. Mazkur masala, milliy darajada faqat Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, "Ruhiy holati buzilgan shaxslarni majburiy davolash uchun berish to'g'risida"gi konvensiya (Moskva, 1997-yil 28-mart) qoidalarini va ushbu sohada O'zbekiston Respublikasining boshqa xalqaro shartnomalarini bajarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarini amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ruhiy holati buzilgan shaxslarni majburiy davolash uchun O'zbekiston Respublikasi tomonidan berish va qabul qilish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlangan.

Mazkur nizom qoidalari 1997-yilgi "Ruhiy holati buzilgan shaxslarni majburiy davolash uchun berish to'g'risida"gi konvensiya normalariga muvofiq bo'lib, ruhiy holati buzilgan shaxslarni majburiy davolash uchun O'zbekiston Respublikasi tomonidan berish va qabul qilish tartibi batafsil yoritilgan. Lekin shunga qaramasdan, mazkur konvensiyaning barcha qoidalari ham to'liq aks etmagan bo'lib, milliy qonunchilikda bo'shliqlarni keltirib chiqaradi. Xususan, konvensiyaning 10-moddasiga ko'ra, agar shaxs majburiy davolanishga topshirilgandan so'ng, u topshirilgan Ahdlashuvchi Tomonning sud qarori bekor qilinsa va yangi tergov yoki sud jarayoni nazarda tutilgan bo'lsa, qarorning nusxasi, jinoyat

ishi materiallari va boshqa zarur hujjatlar shaxsni ushbu Ahdlashuvchi Tomon qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortish masalasini hal qilish uchun qabul qilgan Ahdlashuvchi Tomonga yuboriladi. Bundan tashqari, sud qarori o'zgargan bo'lsa, u qabul qilingan Ahdlashuvchi Tomon bu shaxsni majburiy davolash uchun qabul qilgan Ahdlashuvchi Tomonni darhol xabardor qiladi.

Bunga qo'shimcha ravishda, tibbiy komissiya xulosasiga ko'ra, agar majburiy davolanayotgan shaxsning ruhiy holatining o'zgarishini hisobga olgan holda majburiy tibbiy choralarni bekor qilish yoki o'zgartirish zarur bo'lsa, majburiy tibbiy choralarni bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risida shaxsni majburiy davolanishga topshirgan Ahdlashuvchi Tomon sudi yoki majburiy davolanish joyidagi Ahdlashuvchi Tomon sudi tegishli qaror qabul qilinishi mumkin. Qabul qilingan qaror to'g'risida boshqa Ahdlashuvchi Tomon yozma ravishda xabardor qilinishi haqida qoida kiritilgan.

Bukabu qoidalar mamlakatimiz qonunchiligida belgilanmagan bo'lib, amaliyotda uchrab turadi. Ammo huquqiy asosi mavjud bo'lmagani uchun ham bir qancha muammolarni (o'zarolik prinsipini qo'llash) yuzaga keltirib chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida ham ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni jazo o'tashi uchun topshirish hamda ruhiy kasallikka chalingan, shuningdek ruhiy kasalliklar bilan kasallangan shaxslarni fuqaroligiga tegishli bo'lgan davlatda tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash uchun topshirish borasidagi asosiy huquqlari, mahkumlarning boshqa joyga ko'chirishda yaqin qarindoshlarini xabardor etish, xalqaro shartnoma asosida ozodlikdan mahrum qilingan shaxs jazoni o'tab bo'lgan yoki unga nisbatan amalga oshirilgan har qanday harakat yuzasidan xorijiy davlatni xabardor etish masalalari milliy qonunchilikda aks etishi xalqaro huquq normalariga moslashtirish va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, JIKning 4-moddasida belgilangan xalqaro huquq normalarining ustunligi kabi qoidalarga rioya etilishiga olib keladi.

Shu nuqtayi nazardan, quyidagi qoidalarni xalqaro huquq normalariga muvofiq keltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi JIK tegishli moddalariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish taklif etiladi. Xususan, 170-, 173-, 188-, 194-moddalariga, *"topshirilgan mahkum vafot*

etganida”, “topshirilgan mahkum jazoni o’tab bo’lganida”, “bemor qochib ketgani yoki vafot etganida”, “topshirilgan mahkumga nisbatan tibbiy yo’sindagi majburlov choralarini qo’llaganida”, xalqaro shartnomalarda belgilangan tartibda Ichki ishlar vazirligi keyinchalik bu haqda xorijiy davlatning vakolatli organiga qonunda belgilangan tartibda xabar berish uchun O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini xabardor qiladi, degan qoidani kiritish maqsadga muvofiqdir.

Mahkumning huquqiy maqomini tahlili natijasida shuni xulosa qilar ekanmiz, asosiy urg’uni aynan mahkum xorijiy davlatda jazo o’tayotganligi va topshirilishi jarayonidagi huquq va majburiyatlarni hisobga olishimiz zarur. Chunki umumiy shaklda davlatlar milliy

qonunchiligi xalqaro huquqning jazoni ijro etish va mahkumlar bilan muomalada bo’lishga taalluqli prinsiplari va normalarini inobatga oladi. Shunga binoan, milliy qonunchiligini xalqaro shartnomalarga zid bo’lmagan holda shakllantiradi. Aksariyat davlatlarda mahkumlarning huquqiy holati jinoiy-ijroiya qonunchiligida belgilangan bo’ladi. Lekin biz jazo o’tashni davom ettirish uchun fuqarosi bo’lgan davlatga topshirilayotgan mahkumlarning huquqiy maqomiga asosiy e’tiborni qaratdik. Shu munosabat bilan, mahkumni topshirish to’g’risida ish qo’zg’atish bosqichida, ham jinoyat-protsessual, ham jinoyat ijroiya qonunchiligiga hamda halqaro standartlarga murojaat qilish zarurati yuzaga keladi.

REFERENCES

1. Umarkhanova D.Sh. Jinoyat ishlari bo’yicha hamkorlik mexanizmini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the mechanism of international cooperation in criminal matters]. Tashkent, TSUL, 2020, pp. 21-22.
2. Volevodz A.G. Pravovoe regulirovanie novix napravleniy mejdunarodnogo sotrudnichestva v sfere ugolonogo prosessa [Legal regulation of new directions of international cooperation in the field of criminal procedure] Moscow, 2002, p. 102.
3. Bassiouni M.C. Introduction to International Criminal Law. Leiden, Boston, 2013, pp. 499-528.
4. Plachta M. International Cooperation in the Draft United Nations Convention against Transnational Crime. Asia and Far East Institute for the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders (UNAFEI) Annual report for 1999 and resource material series, no. 57. Fuchu, Tokyo, Japan. September 2001, p. 87.
5. A model agreement on the transfer of foreign prisoners basic principles. Available at: www.un.org
6. Krimov A.A. Ugolovno-prosessualnaya deyatel’nost organov i uchrejdeniy ugolovno-ispolnitel’noy sistemi Rossii [Criminal procedural activity of bodies and institutions of the Russian penal enforcement system]. Moscow, 2015, p. 377.
7. Seliverstova E.A. Pravovaya negramotnost osujdennix k lisheniyu svobod kak odna iz problem v realizatsii ikh prava na obrasheniye [Legal illiteracy of persons sentenced to imprisonment as one of the problems in the realization of their right to appeal]. Moscow, 2014, p. 168.
8. Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners. 35 point. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/prison.shtml/.
9. Wree, Eveline & Beken, Tom & Vermeulen, Gert. The transfer of sentenced persons in Europe: Much ado about reintegration. Punishment & Society-international Journal of Penology. 2009, no. 11 (1), p. 118.
10. Internationale Rechtshilfe in Strafsachen. Available at: https://www.bundesjustizamt.de/DE/Themen/Gerich-e_Behoerden/IRS/Rechtshilfe_node.html/ (accessed 07.09.2021).
11. The Penal Enforcement Code of the Republic of Uzbekistan. Article 9. Available at: www.lex.uz/.
12. The Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan (article 592). Available at: www.lex.uz/.
13. Blinov A.V. Realizatsiya neotemlemix prav lichnosti v mestax lisheniya svobod [Realization of the inalienable rights of the individual in places of deprivation of liberty]. Vologda, 2008, p. 71.
14. Ugolovno-prosessualnie kodeks Federativnoy Respubliki Germaniya [Criminal Procedure Code of the Federal Republic of Germany]. Strafprozessordnung (StPO), 14.09.2021.
15. Golovnenkov P., Spica N. Ugolovno-prosessualnie kodeks Federativnoy Respubliki Germaniya Strafprozessordnung (StPO) [Criminal Procedure Code of the Federal Republic of Germany Strafprozessordnung

(StPO) – Scientific and practical commentary and translation of the text of the law. Introduction to the criminal procedure law of Germany]. Moscow, MGYUA, 2012.

16. The Seventh United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, held in Milan from 26 August to 6 September 1985. Development and application of UN standards and norms in criminal justice. Note by the Secretariat, p. 9.

17. National database of legislation of the Republic of Uzbekistan: www.lex.uz/.

18. Convention on the Transfer of Persons Sentenced to Imprisonment for Further Serving of their Sentence.

P. 17. Available at: <http://cis.minsk.by/reestr/ru/index.html#reestr/view/text?doc=776/>.

19. Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners. 44 point. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/prison.shtml/.

20. European Treaties database. Available at: <http://www.coe.int/>.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.